



chaban oglu

BY
DILSHAD

Kirish

Koronavirus pandemiyasi davrida Toshkentda turkcha taomlar tortiq qilinadigan «Dilshad LB» (launch bar) nomli kichik oilaviy kafe ochildi. Kafe o'zining mazali taomlari va xizmat ko'rsatish sifati tufayli tez tanila boshladi.

Ammo kengayish va yangi filial ochish fursati keldi. Shu onda ma'lum bo'ldiki, kafe nomi bir qancha kamchiliklarga ega:

- **hech qanday hislar (emotsiya) chaqirmaydi,**
- **eslab qolish mushkul,**
- **turkcha oshxona bilan bog'liqligi yo'q.**

O'shanda mijoz bizga mana shu topshiriqlar bilan murojaat qildi. Kafening noyobligini ifodalovchi va turk oshxonasi haqida tasavvur uyg'otuvchi nom topish kerak edi.

Tadqiqot

Tadqiqot va o'rganishlar bosqichi boshlandi. Ma'lum bo'ldiki, kafening noyobligi undagi taomlar uchun barcha go'sht mahsulotlari sof tabiatи va go'shtxo'r xalqi bilan tanilgan Qashqadaryo tumanidan olib kelinishida ekan. Bu katakda faqatgina yem-xashak bilan boqilgan, sun'iy semirtirilgan bo'rdoqi chorva emas, balki tog' tizmalarida, tabiiy muhitda maysalar bilan boqilgan chorvalar. Shu afzallikdan kelib chiqib, biz brend uchun hikoya yaratdik.

Brend hikoyasi — bu kompaniyaning paydo bo'lishi va bozorda rivojlanishi haqidagi qissa. Bu o'zgacha bir hikoya bo'lib, u brend qanday paydo bo'lgani hamda uning negizida qanday tamoyil va qadriyatlar yotishi haqida so'zlab beradi.

Hikoya

Hikoyaga ko'ra, bir cho'ponning o'g'li chekka hududdan shaharga keladi va o'zi bilan nafaqat merosini, balki yangi maskanga biror nima tuhfa etish haqidagi orzularini ham olib keladi.

Kichikkina oshxona ochib, bolaligidan o'z otasidan o'rgangan an'anaviy milliy taomlarga asoslangan bilim va ko'nikmalarini amalda joriy qiladi. Cho'pon ota esa o'z navbatida tog' hududlarida tabiiy boqilgan chorva go'shtini o'g'liga jo'natishda davom etgan holda farzandini qo'llab-quvvatlab turadi.

Bundan tashqari, turkiy xalqlar hayotida chorvachilikning o'rni tarixan ulkan bo'lган. Chorva mollari ko'p yurtlarda esa tabiiy ravishda go'sht iste'moli yuqori bo'ladi. Shu tariqa turk oshxonasi ham kabob va go'shtli taomlarga boy.

Neyming

Asosiy bosqich — neyming — nom topish fursati keldi. Aynan "Chaban oglu" nomi mana shu hikoya mohiyatini ajoyib tarzda ochib beradi. "Cho'ponning o'g'li" o'tmish va hozirgi zamon, qadimiy an'analar va yangi istiqbollar orasidagi aloqalarni ifoda etadi.

Lingvistik tahlil

"Chaban" (asli turkcha "çoban") — cho'pon ma'nosini anglatuvchi so'z. Turkiy tillarda bir-biriga yaqin bir qancha talaffuzga ega: cho'pon, cho'bon, chobon, chaban, shopan kabi. Turkcha "og'lu" so'zi turk tilida "o'g'li" degan ma'noni anglatadi.

Adaptatsiya

Oshxonada asosan turkcha taomlar taqdim etilgani bois nom ham aslan turkcha bo'lishi mumkin edi: Çoban oğlu shaklida. Ammo kafe mijozlarining asosiy qismi o'zbeklar bo'lishini inobatga olib, turk tilidagi ilmoqli ç belgisini o'zbek lotin alifbosidagi ch harfiga almashtirdik, ğ belgisidan brevisni olib tashladik. Natijada "Chaban oglu" nomi hosil bo'ldi, ammo harflar o'zgargani bilan turkcha talaffuz saqlab qolindi.


Natija

Hozirgi paytda "Chaban oglu" odamlar mammuniyat bilan yana va yana qaytib boradigan maskanga aylandi. Kafe shahar aholisi qalbidan tez joy egallab bormoqda. U yerda nafaqat ajoyib taomlardan bahra olish, balki haqiqiy shinamlik va iliqlikni his qilish mumkin. Oshxonaning tashrif buyurish va taniqlilik statistikasi kun sayin oshib bormoqda.

chaban
oglu BY
DILSHAD

chaban
oglu BY
DILSHAD







Minim → Chaban oglu → Vizuallizatsiya





chaban
oglu

Minium
BRAND
DESIGN

→ Chaban oglu → Vizuallizatsiya



Minim
BRAND
DESIGN

→ Chaban oglu → Vizuallizatsiya

chaban oğlu BY DILSHAD

E'tiboringiz uchun rahmat!



info@minim.uz